Shuningdek, mavjud qonunchilik bazasi va institutsional infratuzilmaning rivojlanmaganligi ham aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, ko'plab yirik korxonalarning aksiyalari cheklangan doirada muomalada bo'lmoqda, ularning aksiyalari ommaviy savdoga chiqarilmayapti, IPO (ommaviy taklif) amaliyoti keng joriy qilinmagan. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlarining moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklaydi va qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishini sustlashtiradi. Aholi va yuridik shaxslarning bu bozorga bo'lgan ishonchi hali ham yetarli emasligi, moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi ushbu muammolarni yanada chuqurlashtiradi.



Shu bilan birga, xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, qimmatli qog'ozlar bozori va aksiyadorlik jamiyatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni to'g'ri tashkil etish orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, xususi sektorning o'sishini rag'batlantirish, kapitalning erkin harakatini ta'minlash mumkin. Rivojlangan davlatlarda bu tizimlar bir-biri bilan integratsiyalashgan va o'zaro to'ldiruvchi mexanizm sifatida samarali faoliyat yuritmoqda. Masalan, AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqa ilg'or iqtisodiyotlarda aksiyadorlik jamiyatlari fond bozorining asosiy ishtirokchilari hisoblanadi va ular orqali moliyalashtirishning katta qismi amalga oshiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va moliya bozorlarining o'zaro integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni o'rganish ko'plab olimlar e'tiborida bo'lgan. Mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar ushbu ikki tizim o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, uni mustahkamlash mexanizmlarini ishlab chiqish va zamonaviy moliyaviy amaliyotga moslashtirishga qaratilgan.

Mahalliy olimlardan A.Jo'rayev ham qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining ishtiroki borasida dolzarb fikrlarni ilgari surgan. Uning fikricha, "aksiyadorlik jamiyatlari o'zining aksiyalarini ochiq savdoga qo'yib, yirik strategik investorlarni jalb etish imkoniga ega bo'ladi, bu esa ularning kapital bazasini mustahkamlaydi va korporativ boshqaruv madaniyatini rivojlantiradi" [1].

Yana bir boshqa tadqiqotchi M.M.Musaeva aksiyadorlik jamiyatlarining kapital jalb etishdagi imkoniyatlari haqida fikr bildirar ekan, ularning faoliyati qimmatli qog'ozlar bozori bilan bevosita bog'liqligini qayd etadi. Uning fikricha, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan chiqarilayotgan aksiyalar va obligatsiyalar moliyaviy resurslarni erkin va shaffof jalb qilishda eng samarali vositadir. Shuningdek, u qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi investorlarning ushbu jamiyatlarga bo'lgan ishonchini oshirishini, korporativ boshqaruvni kuchaytirishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, "qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining faol ishtiroki – bu nafaqat korxonaning kapitali, balki butun mamlakat moliyaviy tizimining barqarorligiga xizmat qiladi" [4].

Yana bir tadqiqotchi, M.A.Hamdammovning fikricha, qimmatli qog'ozlar bozori orqali jalb qilingan kapital aksiyadorlik jamiyatlari uchun tashqi moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi. U bunday kapitalni "strategik moliyaviy manba" deb ataydi va aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy mustaqilligi bevosita ushbu bozor faoliyatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Hamdamov o'z asarida shunday deydi: "Korporativ boshqaruv tizimida axborot ochiqligi va aktsionerlar bilan samarali muloqot qimmatli qog'ozlar bozorining ishonchiligidini belgilovchi asosiy omillardandir". Demak, kompaniyalar shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlagan taqdirdagina investorlar ularning aksiyalariga qiziqish bildiradilar [5].

Xorijiy tadqiqotchilardan biri, amerikalik iqtisodchi J.Stiglitz ham aksiyadorlik kapitalining rolini yoritib, qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiy o'sishdagi ahamiyatini chuqur tahlil qilgan. U kapital bozorini "iqtisodiy rivojlanishning yuragi" deb ataydi va aksiyalar orqali resurslar taqsimotining samarali amalga oshirilishini asoslab beradi. Stiglitzga ko'ra, "moliyaviy bozorlar, xususan, qimmatli qog'ozlar bozori orqali xatarlarni boshqarish, resurslarni optimallashtirish va innovatsion g'oyalarni moliyalashtirish imkoniyati paydo bo'ladi" [6].

Rossiyalik iqtisodchi E.F.Jukov esa aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida kapitalning erkin aylanishi va fond bozori infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikka urg'u beradi. U o'z izlanishlarida kompaniya kapitalining likvidligi va aksiyalar narxining bozordagi axborotga sezgirliги borasida nazariy mulohazalar bildiradi. Uning fikricha, "aksiyadorlik jamiyatlari fond bozori orqali nafaqat resurslarni jalb etadi, balki o'zining moliyaviy bahosini shakllantiradi" [7].

M.A.Fedotova korporatsiyalarning moliyaviy boshqaruvida aksiyadorlarning roli, dividend siyosati va aksiyalar narxiga ta'siri haqida to'xtaladi. U "aksiyadorlar bilan aloqalar boshqaruvi investor faolligini oshiradi", deydi [10].

V.A.Galanin Rossiyada korporativ boshqaruv o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga to'siq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. U "menejerlar va aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar ziddiyati bozor samaradorligini pasaytiradi", deb yozadi [9].

Ko'rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar ilmiy doiralarda turlicha nuqtayi nazarlar asosida o'rganilmoqda. Aksariyat tadqiqotchilar bu munosabatlarni kuchaytirish uchun institutsional islohotlar, investorlarni himoyalovchi mexanizmlar, shaffoflik, axborot ta'minoti va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish zarurligini e'tirof etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni chuqur tahlil qilish uchun zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlarga asoslanilgan. Tadqiqotda



iqtisodiy tahlil, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, empirik yondashuv, sistemali tahlil hamda mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini o'rganishda ularning moliyaviy holati, aksiyalar chiqarish va ularning bozordagi aylanishi, kapitalning shakllanish manbalari, shuningdek, bozor infratuzilmasi bilan o'zaro aloqadorlik darajasi asosiy yo'nalish sifatida belgilangan.

Metodologik jihatdan tadqiqotda iqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash uchun sistemali tahlil usuli qo'llanildi. Bu usul orqali aksiyadorlik jamiyatlarining bozor faoliyati va fond bozori o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlari ochib berildi. Ayniqsa, bu jarayonda qimmatli qog'ozlar chiqarish hajmi, ularning bozordagi qiymati, investorlarga ta'siri va likvidlik ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida tahlil qilindi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil orqali O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari va xorijiy kompaniyalar o'rtasida qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokida mavjud farqlar aniqlanib, ularga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi. Statistik ma'lumotlar asosida fond bozorining hajmi, qimmatli qog'ozlar aylanishi, aksiyalar narxлари va kapitalizatsiya ko'rsatkichlari aniqlanib, ularning o'zgarish dinamikasi grafik va jadval shaklida ifodalandi.

Shuningdek, ilmiy qarashlar va mavjud nazariyalar tahlil qilinib, ular asosida amaliy xulosalar chiqarildi. Tadqiqotda mavjud qonunchilik, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Respublika fond birjasi, Moliya vazirligi va boshqa manbalar asosiy axborot bazasini tashkil qildi. Bu yondashuvlar asosida maqolada ilmiy asoslangan, tahliliy va takliflarga boy natijalarga erishishga harakat qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar iqtisodiy tizimning asosiy elementlaridan biri sifatida shakllanadi. Bu munosabatlar bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lib, iqtisodiyotda kapital harakati, investitsiya muhitining rivoji, moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi kabi muhim jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Aksiyadorlik jamiyatlari – bu kapitali aksiyalarga bo'lingan va investorlardan mablag' jalb qilish imkoniyatiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektdir. Ular o'z moliyaviy ehtiyojlarini, ayniqsa uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalashtirishni ta'minlash uchun qimmatli qog'ozlar, ya'ni aksiyalar va obligatsiyalar chiqaradilar. Bu qimmatli qog'ozlar esa qimmatli qog'ozlar bozori orqali investorlar orasida muomalaga chiqariladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori esa bu resurslar aylanishini ta'minlovchi, investor va emitent (aksiyadorlik jamiyatlari) o'rtasida moliyaviy vositachilikni amalga oshiruvchi institutsional muhitdir. Ushbu bozor investorlar uchun daromad olish, aksiyadorlik jamiyatlari uchun esa resurs topish imkoniyatini yaratadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining bu bozordagi faolligi ularning moliyaviy barqarorligini, korporativ boshqaruv madaniyatini, investitsion jozibadorligini belgilaydi. Shu bilan birga, ushbu munosabatlar yurtimizda bozor mexanizmlarining chuqurlashuviga va iqtisodiy samaradorlikning oshishiga olib keladi. Quyidagi jadval ayni shu munosabatlarning turlari va mazmunini tizimli ko'rinishda aks ettiradi (1-jadval):

1-jadval. Aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar¹

№	Munosabat turi	Aksiyadorlik jamiyatlari nuqtai nazaridan	Qimmatli qog'ozlar bozori nuqtai nazaridan	Iqtisodiy ahamiyati
1	Moliyalashtirish munosabatlari	Kapital jalb qilish uchun aksiyalar chiqaradi	Investorlar orqali moliyaviy resurslarni taqsimlaydi	Investitsiya oqimlarini ta'minlaydi
2	Investitsion aloqalar	Real sektorga sarmoya yo'naltiradi	Investitsiyalarni samarali sektorlarga taqsimlaydi	Iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi
3	Korporativ boshqaruv munosabatlari	Aksiyadorlar bilan ochiq boshqaruv yuritadi	Axborot shaffofligini talab etadi	Investor ishonchini oshiradi
4	Risklarni boshqarish	Riskni ko'plab aksiyadorlarga taqsimlaydi	Diversifikatsiya orqali xavfni kamaytiradi	Kapitalning xavfsiz aylanishiga yordam beradi
5	Narx shakllanishi	Aksiyalar narxi orqali kompaniya qiymatini belgilaydi	Bozor mexanizmi orqali narxni aniqlaydi	Korxona faoliyatini bozor baholaydi
6	Daromad (dividend) aloqalari	Foyda taqsimoti orqali aksiyadorlarni rag'batlantiradi	Dividend siyosatini aks ettiradi	Investor faolligini oshiradi
7	Sekundar muomala	Aksiyalarni qayta sotish orqali likvidlik yaratadi	Investorlar chiqish strategiyasiga ega bo'ladi	Sarmoyaning aylanish tezligini oshiradi
8	Audit va nazorat aloqalari	Hisobot va yillik auditni taqdim etadi	Monitoring va reyting mexanizmlarini qo'llaydi	Bozor ishonchligi va shaffofligini ta'minlaydi

1 Muallif tomonidan tayyorlandi



Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar ko'p qirrali va o'zaro bog'liqdir. Bu munosabatlar asosan moliyalashtirish, investitsiyalash, korporativ boshqaruv, riskni boshqarish, narx shakllanishi, daromad taqsimoti, ikkilamchi savdolar va nazorat kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Har bir yo'nalish o'ziga xos iqtisodiy funktsiyaga ega bo'lib, ularning kombinatsiyasi aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy salohiyatini oshiradi va qimmatli qog'ozlar bozorining barqaror ishlashiga xizmat qiladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari uchun qimmatli qog'ozlar bozori eng avvalo investitsiya resurslarini topish manbai hisoblanadi. Bu resurslar kompaniyalarga o'sish, modernizatsiya va raqobatbardoshlikni ta'minlash imkonini beradi. Bozor esa, o'z navbatida, kapitalni muhtoj subyektlarga to'g'ri taqsimlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, korporativ boshqaruvning shaffofligi, moliyaviy hisobotlarning ochiqligi va dividend siyosatining uzviyligi investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

Investorlar uchun esa ushbu munosabatlar daromad olish, xavfni diversifikatsiya qilish va sarmoyaning likvidligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, bu ikki institut o'rtasidagi mustahkam iqtisodiy aloqalar nafaqat kompaniyalar va investorlar darajasida, balki butun iqtisodiy tizim samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida bu munosabatlarni chuqurlashtirish uchun institutsional, huquqiy va axborot muhitini yanada rivojlantirish zarur. Ana shunda aksiyadorlik jamiyatlari fond bozorining faol ishtirokchisiga aylanadi, fond bozori esa iqtisodiy taraqqiyotning kuchli drayveriga aylanishi mumkin.

So'nggi yillarda dunyo bo'ylab aksiyadorlik jamiyatlari soni ortib bormoqda, ayniqsa, rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda rivojlanayotgan mamlakatlarda ham bu jarayon jadallashgan. Bu esa qimmatli qog'ozlar bozorining chuqurroq integratsiyalashuviga, sarmoyadorlar faolligining ortishiga va korporativ boshqaruvning takomillashishiga olib kelmoqda.

Bugungi tendensiyalar orasida IPO (birlamchi ommaviy taklif) faoliyatining faollashuvi, ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) talablar asosida kompaniyalar baholanishi, texnologik kompaniyalar yetakchiligi va raqamli aktivlarning moliyaviy bozorlarga kirib kelishi alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, AQSh, Yaponiya va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida yirik kompaniyalar yildan-yilga aksiyalar orqali kapitalni ko'paytirmoqda. Shuningdek, Xitoy, Hindiston, Braziliya, Indoneziya kabi davlatlarda ham aksiyadorlik jamiyatlari sonining ko'payishi va ularning fond bozorida ulushi ortib bormoqda.

Quyidagi jadvalda dunyoning turli mintaqalarida aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi so'nggi rivojlanish ko'rsatkichlari va asosiy tendensiyalari umumlashtirilgan holda keltirilgan (2-jadval):

2-jadval. Dunyo bo'yicha qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanish tendensiyalari (2024-2025)²

№	Mintaqa / Davlat	Aksiyadorlik jamiyatlari soni (ming)	IPO soni (2024)	Bozor kapitalizatsiyasi (trln \$)	Asosiy tendensiya
1	AQSh	4.3	260	45.1	Texnologik gigantlar yetakchilik qilmoqda
2	Yevropa Ittifoqi	2.7	140	19.8	Yashil obligatsiyalar va ESG talablar kuchaymoqda
3	Xitoy	6.1	540	13.2	Davlat nazorati ostidagi IPOlar faolligi oshdi
4	Hindiston	2.1	160	4.7	O'rta biznesning fond bozoriga chiqishi kuchaydi
5	Yaponiya	3.0	90	6.4	Korporativ boshqaruv standartlari takomillashmoqda
6	Braziliya	0.85	35	1.6	Xususiy sektor sarmoya jalb qilishga intilmoqda
7	Janubiy Koreya	1.2	55	2.3	Texno-startaplar ustuvor bo'lib bormoqda
8	Indoneziya	0.7	50	0.9	Bank va sug'urta kompaniyalari IPO o'tkazmoqda
9	Rossiya	0.65	20	0.7	Ichki bozor ustuvor, sanksiyaviy cheklovlar mavjud
10	Afrika (umumiy)	0.4	25	0.6	Xalqaro moliyaviy institutlar ishtiroki kuchli

2 Muallif tomonidan tayyorlandi



Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlar dunyo bo'yicha qimmatli qog'ozlar bozorida aksiyadorlik jamiyatlarining o'sish tendensiyasi barqaror bo'lib borayotganini ko'rsatmoqda. Bu jarayon ayniqsa texnologik rivojlangan davlatlar AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda jadal kechmoqda. AQShda texnologik kompaniyalar, ayniqsa Facebook, Apple, Amazon, Netflix, Google kabi aksiyadorlik jamiyatlarining kapitalizatsiyasini keskin oshirib yuborgan.

Yevropada esa aksiyadorlik jamiyatlari ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlariga mos ravishda o'z strategiyalarini ishlab chiqmoqda, bu esa "yashil obligatsiyalar" va barqaror investitsiyalar ulushining ortishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, Xitoyda davlatning bevosita ishtiroki bilan aksiyadorlik jamiyatlari soni va IPOlar soni yuqori sur'atlarda o'smoqda, lekin ushbu jarayon qattiq nazorat ostida olib boriladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar Hindiston, Braziliya, Indoneziya kabi davlatlarda esa o'rta va kichik biznes subyektlari fond bozorlariga chiqishga intilmoqda. Bu esa mahalliy investitsiya muhitini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va texnologik rivojlanishni rag'batlantirishda muhim omil bo'lmoqda.

Afrika qit'asida esa hali ham qimmatli qog'ozlar bozori nisbatan sust rivojlangan, ammo xalqaro moliyaviy institutlar, masalan, Jahon banki va Afrika taraqqiyot banki orqali qator aksiyadorlik jamiyatlari fond bozori orqali investitsiyalarni jalb etishga erishmoqda.

Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlarining global iqtisodiyotdagi o'rni kuchayib borayotgan bo'lib, bu ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki, kapitalni jalb qilish strategiyalari, boshqaruv tamoyillari va barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiqlik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning mazmuni, shakllanish omillari, zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari va ularning o'zaro ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ushbu ikki institutning iqtisodiy tizimdagi roli va o'zaro bog'liqligi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham beqiyos ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Aksiyadorlik jamiyatlari orqali kapitalning jamlanishi, ularning fond bozoriga chiqishi, qimmatli qog'ozlar emissiyasi orqali investitsiyalar jalb qilinishi kabilarning barchasi qimmatli qog'ozlar bozorining faollashuvi, moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning tarkibiy qismidir. Ayniqsa, bozorda shaffoflik, ochiqlik, samarali korporativ boshqaruv va raqamli infratuzilmalar mavjud bo'lsa, bu jarayonlar yanada jadallashadi.

O'zbekistonda ham aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirish va ularning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faolligini oshirish yo'lida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq mavjud muammolar, xususan fond bozori infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi, korporativ boshqaruvdagi kamchiliklar, investorlarga ishonch darajasining pastligi va qimmatli qog'ozlar savdosida likvidlikning sustligi haligacha ushbu munosabatlarning to'liq salohiyatda ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Shu nuqtai nazardan quyidagi takliflar ishlab chiqdik:

Aksiyadorlik jamiyatlarining ochiqqligini ta'minlash – Ularning yillik moliyaviy hisobotlari, dividend siyosati, faoliyat strategiyasi bo'yicha axborotlar ommaga taqdim etilishi majburiy bo'lishi kerak. Bu investorlar ishonchini mustahkamlash va aksiyalarga talabni oshirishga xizmat qiladi;

Korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish va amalda qo'llash – Xalqaro tajribaga tayangan holda mustaqil direktorlar instituti, audit qo'mitalari, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish mexanizmlari joriy etilishi zarur;

Fond bozori infratuzilmasini modernizatsiya qilish – Elektron savdo tizimlarini kengaytirish, investorlarga qulay interfeyslar yaratish, avtomatlashtirilgan axborot platformalarini joriy etish orqali bozorning texnologik salohiyatini oshirish lozim;

IPO jarayonlarini faollashtirish – Yirik korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish va ularni ommaviy aksiyalar chiqarishga undash orqali bozorni kengaytirish mumkin. Davlat ishtirokidagi yirik korxonalar buni boshlovchi sifatida xizmat qilishi mumkin;

Moliyaviy savodxonlikni oshirish – Aholi va tadbirkorlar o'rtasida qimmatli qog'ozlar bozori, aksiyalar, investitsiya madaniyati haqida ommaviy tushuntirish va targ'ibot ishlari olib borilishi kerak;

Xorijiy investorlar uchun imtiyozli sharoitlar yaratish – Soliq yengilliklari, dividendlar bo'yicha kafolatlar va valyuta konvertatsiyasi erkinligi orqali xorijiy kapitalni jalb etish mumkin;

Nazorat va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish – Davlat nazoratining ortiqcha byurokratik to'siqlarini kamaytirgan holda, bozorni sog'lom raqobat asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar yaratilishi kerak;

Innovatsion va yashil iqtisodiyot subyektlarini aksiyadorlik shaklida rivojlantirish – Ayniqsa startaplar, texnoparklar, ekologik yo'nalishdagi loyihalar fond bozoriga chiqishi rag'batlantirilishi lozim.

Umumiy qilib aytganda, aksiyadorlik jamiyatlari va qimmatli qog'ozlar bozori o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash, ya'ni O'zbekiston moliyaviy tizimini chuqurlashtirish, kapital harakatini erkinlashtirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish yo'lida strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur



munosabatlarning rivoji faqat bozor ishtirokchilarining emas, balki davlat, investor va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Shu sababli, yuqorida taklif etilgan choralarni izchil amalga oshirish orqali ushbu munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro moliya korporatsiyasi ustav kapitalidagi qo'shimcha aksiyalarga obuna bo'lishi to'g'risida"gi №PQ-26-sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining ustav kapitalidagi qo'shimcha aksiyalarga O'zbekiston Respublikasining obuna bo'lishi to'g'risida"gi PP-3600-sonli qarori
4. Musaeva M.M. "Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini moliyalashtirishda qimmatli qog'ozlar bozorining roli". – Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2022. – 196 bet.
5. Hamdamov M.A. "Moliyaviy menejment asoslari". – Toshkent: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2021. – 280 bet.
6. Stiglitz J. "Capital Markets and Economic Development". – Journal of Economic Perspectives, 2000, Vol. 14, No. 1. – pp. 145–158.
7. Жуков Е.Ф. Банковское дело: учебник. – Москва: Юнити-Дана, 2010. – 512 с.
8. Жураев А. "O'zbekiston fond bozori va aksiyadorlik jamiyatlari: muammo va yechimlar". // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy jurnali, 2023, №2. – B. 88–95.
9. Khujamurodov A. ФОНД БИРЖАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХИТОЙ ТАЖРИБАСИ //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.
10. Галанин В.А. Корпоративное управление: российская специфика. // Менеджмент и бизнес-администрирование, 2020. №2. – С. 44–51.
11. Федотова М.А. Финансовый менеджмент. – Москва: Юрайт, 2021. – 456 с.
12. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
13. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
14. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti
15. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti
16. <https://xalqchilipo.uz> – "Xalqchil IPO" sayti



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
